

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 55 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Sherzod Rajabov

Xalqaro Nordik universiteti
Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar
kafedrası dotsenti

sh.rajabov@nordicuniversity.org

<https://orcid.org/0000-0001-5656-8031>

Istora Abdusalomova

Xalqaro Nordik universiteti
Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar
kafedrası PhD katta o'qituvchisi

i.abdusalomova@nordicuniversity.org

<https://orcid.org/0009-0001-3055-6291>

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ko'rsatayotgan ta'siri tahlil etiladi. Global raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va raqamli moliyaviy tizimlarning davlat iqtisodiyotiga ta'siri chuqur o'rganilmoqda. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, fiskal va monetar siyosatning aniqligini ta'minlashi hamda iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, davlat institutlari tomonidan qabul qilinayotgan raqamli strategiyalar makroiqtisodiy muvozanat va iqtisodiy o'sish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatayotgani amaliy misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirishdagi strategik ahamiyatini ko'rsatmoqda hamda iqtisodiy siyosat yurituvchilari uchun amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, makroiqtisodiyot, barqarorlik, sun'iy intellekt, Big Data, fiskal siyosat, monetar siyosat, raqamli transformatsiya, iqtisodiy o'sish, raqamli infratuzilma.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние цифровых технологий на макроэкономическую стабильность. В условиях глобальной цифровой трансформации подробно изучается воздействие искусственного интеллекта, больших данных (Big Data), облачных технологий и цифровых финансовых систем на экономику государства. Обосновывается роль цифровых технологий в повышении производственной эффективности, точности фискальной и монетарной политики, а также в обеспечении экономической устойчивости. Кроме того, на практических примерах рассматривается, как цифровые стратегии, принимаемые государственными институтами, влияют на макроэкономическое равновесие и процессы экономического роста. Результаты исследования показывают стратегическую значимость цифровых технологий в формировании устойчивой экономической среды и предлагают рекомендации для лиц, определяющих экономическую политику.

Ключевые слова: цифровые технологии, макроэкономика, стабильность, искусственный интеллект, Big Data, фискальная политика, монетарная политика, цифровая трансформация, экономический рост, цифровая инфраструктура.



Abstract: This article analyzes the impact of digital technologies on macroeconomic stability. In the context of global digital transformation, the effects of artificial intelligence, big data, cloud computing, and digital financial systems on national economies are thoroughly examined. The research substantiates how digital technologies enhance production efficiency, increase the precision of fiscal and monetary policies, and contribute to overall economic stability. Additionally, the study explores how national digital strategies influence macroeconomic equilibrium and economic growth, using practical examples. The findings highlight the strategic significance of digital technologies in fostering a stable economic environment and offer policy recommendations for economic decision-makers.

Key words: digital technologies, macroeconomics, stability, artificial intelligence, big data, fiscal policy, monetary policy, digital transformation, economic growth, digital infrastructure.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda axborot va raqamli texnologiyalarning o'rni izchil rivojlanmoqda. Globalizatsiya sharoitida davlatlar raqamli transformatsiyani o'z strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qabul qilmoqda. Bu holat, o'z navbatida, makroiqtisodiy barqarorlik masalalariga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Mazmunan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, inflyatsiya va ishsizlik darajasini boshqarish, fiskal hamda monetar siyosatning samaradorligini oshirish kabi muhim omillarga ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot texnologiyalari, xususan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash, blokcheyn kabi innovatsion tizimlar iqtisodiy jarayonlarning nafaqat avtomatlashtirilishini, balki ularning chuqur tahlil qilinishi va samarali qarorlar qabul qilinishi uchun zarur asosni yaratmoqda. Bu texnologiyalar orqali iqtisodiy ma'lumotlarni real vaqt rejimida o'rganish, tendensiyalarni oldindan bashorat qilish hamda farovonlikni ta'minlovchi mexanizmlarni joriy etish imkoniyati vujudga kelmoqda.

Shuningdek, raqamli infratuzilma ustuvor yo'nalish sifatida davlat siyosatiga integratsiyalashmoqda. Rivojlangan hamda rivojlanib borayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga doir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar orqali iste'mol, investitsiya, mehnat bozori va ijtimoiy ta'minot sohalarida yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanmoqda.

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ko'rsatayotgan ta'siri tizimli ravishda tadqiq etiladi. Unda asosiy e'tibor sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, davlatning rolini kengaytirish hamda iqtisodiy siyosatni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish masalalariga qaratilgan. Shu bilan birga, tahliliy yondashuvlar asosida rivojlanib borayotgan mamlakatlarda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy barqarorlik uchun qanday strategik ahamiyatga ega ekani yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy jarayonlarga ta'sirini yorituvchi ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri alohida tahlil qilinmoqda. Xususan, *Digital Economy Report* (UNCTAD, 2021) hisobotida raqamli platformalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar asosidagi tahlil vositalarining iqtisodiy o'sishdagi roli yoritilgan.

Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ham ushbu yo'nalishda ko'plab ilmiy maqolalar chop etilgan. Masalan, Brynjolfsson va McAfee 2014-yildagi ishlarida raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchilar, jumladan A. Raximov va S. Jo'raevning maqolalarida raqamli iqtisodiyot sharoitida fiskal siyosatni boshqarishning muhim jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi hujjatlar ham ushbu mavzu bo'yicha muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqotning asosiy metodlari sifatida taqqoslash, tahlil, sintetik yondashuv, empirik kuzatuv hamda statistik modellashirish usullaridan foydalanildi. Birinchidan, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasi mahalliy sharoit bilan solishtirilib, o'xshashlik va farqlar aniqlab berildi. Ikkinchidan, mavjud iqtisodiy ma'lumotlar asosida raqamli texnologiyalarning turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga YAIM o'sishi, inflyatsiya darajasi, ishsizlik va investitsiyalar hajmiga bo'lgan ta'siri tahlil qilindi.

Shuningdek, tahlil jarayonida kontent-analiz metodidan ham foydalanildi. Jumladan, raqamli strategiyalar, davlat qaror va farmonlari, xalqaro tashkilotlarning statistik bazalari asosida sifat jihatdan tahlil olib borildi.



Ushbu metodologik yondashuv orqali iqtisodiy barqarorlik va raqamli transformatsiya o'rtasidagi bog'liqlik chuqurroq anglab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston va bir qator rivojlanib borayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. 2019–2023-yillar davomida raqamli texnologiyalarga investitsiyalar hajmi hamda YAIM o'sish darajasi sezilarli darajada ortdi. Xususan, raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar 3 200 mlrd so'mdan 9 500 mlrd so'mga ko'tarilgan davrda YAIM o'sish sur'ati 5,6 foizdan 6,2 foizgacha barqaror o'sishni namoyon etdi. Internet foydalanuvchilari soni esa 22 milliondan 31,5 milliongacha yetdi, bu esa raqamli infratuzilmaning kengayib borayotganini ko'rsatadi. (1-jadval).

1-jadval. 2019–2023-yillarda O'zbekistonda raqamli texnologiyalarga investitsiyalar, YAIM o'sishi va internet foydalanuvchilari sonining dinamikasi

Yil	Raqamli texnologiyalarga investitsiya (mlrd so'm)	YAIM o'sishi (%)	Internet foydalanuvchilari soni (mln)
2019	3,200	5.6	22.0
2020	4,100	1.6	24.5
2021	5,800	7.4	27.3
2022	7,900	5.7	29.8
2023	9,500	6.2	31.5

Raqamli transformatsiya jarayonida sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish hajmi hamda mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshdi. Tadqiqot o'tkazilgan 50 ta sanoat korxonasining 35 tasida sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari joriy etilgach, ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha 18–25 foizga oshgani aniqlangan. Bu esa korxonalarda xarajatlarning kamayishi va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib kelgan.

Fiskal siyosatda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali davlat budjetiga tushumlar barqaror ravishda o'sib bordi. 2020–2023-yillar davomida raqamli soliq boshqaruvi, elektron audit hamda raqamli tranzaksiyalarni kuzatish tizimlarining joriy etilishi natijasida budjet tushumlari sezilarli darajada ko'paydi. Bu esa raqamli transformatsiyaning iqtisodiy barqarorlik va fiskal samaradorlikni ta'minlashdagi muhim rolini namoyon etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishi bilan YAIM o'sish sur'atlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. 2019–2023-yillar davomida raqamli infratuzilmaga kiritilgan mablag'lar mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini jadallashtirib, iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonda internet foydalanuvchilari sonining ortishi ham iqtisodiy faollik kengayishiga xizmat qildi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirdi. Tahlillar ko'rsatadiki, monitoring tizimlari va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonlari mehnat unumdorligining ortishiga, shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarning kamayishiga olib kelgan. Bu esa korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlab, umumiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur texnologiyalarni kengroq joriy etish mamlakat sanoatining raqamli rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Raqamli texnologiyalarning fiskal boshqaruv tizimlarida qo'llanilishi davlat budjetining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. Elektron soliq boshqaruvi, avtomatlashtirilgan audit tizimlari va raqamli tranzaksiyalarni nazorat qilish mexanizmlari orqali budjet tushumlari oshdi. Bu holat davlatning iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirish imkonini yaratdi. Shuningdek, raqamli fiskal boshqaruv iqtisodiyotdagi norasmiy sektorni qisqartirish va soliq to'lovchilarga qulayliklar yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Biroq raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida qator muammolar ham mavjud. Xususan, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, kadrlar malakasining pastligi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi raqamli transformatsiyani sekinlashtirayotgan asosiy omillar hisoblanadi. Shuningdek, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham raqamli infratuzilmaning rivojida dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli, istiqbolda investitsiyalar hajmini oshirish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda xalqaro standartlarga mos xavfsizlik tizimlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarga qilingan investitsiyalar mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va internet foydalanuvchilari sonining ortishi iqtisodiyotning raqamlashtirilishini jadallashtirdi. Sun'iy intellekt hamda avtomatlashtirish texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytirdi. Shu bilan birga, raqamli fiskal boshqaruv tizimlari davlat budjeti tushumlarining barqaror oshishiga xizmat qildi. Biroq, transformatsiya jarayonida hududlararo infratuzilma tafovutlari, malakali kadrlar yetishmovchiligi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun investitsiyalarni kengaytirish, sifatli kadrlar tayyorlash hamda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan tizimlarni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. International Telecommunication Union. (2023). Measuring digital development: Facts and figures 2023. <https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Pages/facts/default.aspx>
2. McKinsey Global Institute. (2022). The economic impact of artificial intelligence on industries. <https://www.mckinsey.com/featured-insights/artificial-intelligence>
3. World Bank. (2024). Digital infrastructure and economic growth in developing countries. <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment>
4. Kobilov, A., Ziyadullaevich, S. A., Sherzod, R., Madrakhimova, Z., Ishankulova, K., & Klichevna, L. (2025). Evaluating the efficacy of state-aided programs in transforming agricultural enterprises through advanced digital management platforms. In BIO Web of Conferences (Vol. 175, p. 01003). EDP Sciences.
5. Safarovich, K. T., Urinovich, K. A., & Bakhtiyorovich, R. S. (2022). INNOVATION AND THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 122-128.
6. Ражабов, Ш., Назаров, И., & Зиёдуллаев, Д. (2025). FOREIGN EXPERIENCES IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM. Interpretation and researches, (4-50).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
